

RAQAMLASHTIRISH- MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI

Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

Abdullayeva H.N.

Iqtisodiyot va turizm fakulteti 4-kurs talabasi

Murodov Sardor

Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. Ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. Ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi.

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida²⁷ raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingani bejiz emas.

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o'ta muhim va dolzarb vazifalar qo'yilgan.

Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, korrupsiyadan xoli hududda ishlash imkoniyatini yaratadi. U "xufiyona iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi. Kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biror ma'lumotni bekitish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji qolmaydi. Buning natijasida esa iqtisodiyotga yo'naltirilgan qonuniy mablag'lar joy-joyiga sarflanadi. Ayniqsa, soliqlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi, byudjet taqsimoti oshkoraligi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar, maktablar, shifoxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq o'z manziliga maqsadli yetib borishiga zamin yaratiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni bizni taraqqiyotga eltadigan eng qisqa yo'l, deya atash g'oyat oqilona va odilona ta'rif bo'ladi.

Eng asosiy vazifa "Raqamli O'zbekiston-2030" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo'lib, u o'z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan. Bunday yirik loyihani amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining to'liq hamda kompleks o'zgarishiga, raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.28.12.2020

qiladi.

Muhim vazifalardan yana biri davlatimiz rahbarining “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlashdir. Qarorga asosan tasdiqlangan “Raqamli Toshkent” kompleks dasturida ta‘lim, sog‘liqni saqlash, transport, kommunal sohalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilgan holda poytaxtimizning qiyofasini to‘liq ijobiy o‘zgartirish ko‘zda tutilgan.

“Raqamli Toshkent” konsepsiyasi “Xavfsiz shahar” yirik loyihasi bilan bevosita bog‘liq. Mazkur loyihani 2019–2023 yillarda respublikamizning barcha hududida bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi belgilangan. Birinchi bosqichda Toshkent shahrida loyihaning yagona texnologik platformasini yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu yil 28 aprel kuni Prezidentimizning “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”²⁸gi qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravar va ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish hamda ularning eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, 2020 - 2022 yillarda elektron hukumat, telekommunikatsiyalar, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha 268 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Mazkur vazifalarning bajarilishi yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarda raqamli texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu ro‘yxatda agrar soha muhim o‘rin tutadi. Shu bois, tarmoqlarni yangi bosqichga chiqarishga xizmat qiluvchi 24 ta loyihani ro‘yobga chiqarish mo‘ljallanyapti. Aytish kerakki, qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muammolar, tezkor hal etish zarur bo‘lgan masalalar oz emas. Axborot texnologiyalari qishloq xo‘jaligida yerni hisobga olish va monitoring qilishda juda qo‘l keladi. Masalan, yerni kosmik zondlash orqali ekin maydonlari, vegetatsiya jarayoni, yerning meliorativ holati va

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 28-aprel, PQ-4699-son.

minerallashuv miqdorini o'rganish mumkin. Bu agrotexnik tadbirlarni aniq belgilab, hosildorlikni 25–30 foizgacha oshirish imkonini beradi.

Tashkil etilgan korxonalar tomonidan viloyatdagi barcha ekin maydonlarining tahliliy ma'lumotlari shakllantirilib, yer egalariga taqdim etiladi. Bundan tashqari, loyiha doirasida chet davlatlarning yer maydonlari haqidagi tegishli xulosalarini shakllantirgan holda ushbu xizmat eksportini amalga oshirish imkoniyati tug'iladi.

Bugungi kunda soha mutaxassislariga sharoit yaratish, IT tadbirkorlikni, ayniqsa, AKT sohasida startap loyihalarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki barpo etildi. Ayni paytda to'rt ming nafar mutaxassis faoliyat yuritayotgan 392 ta tashkilot IT-parkning rezidentlari hisoblanadi.

Mazkur parkda zarur infratuzilma, shu jumladan, zamonaviy laboratoriyalar, kovorking markazi hamda ofis maydonlari mavjud. Texnopark rezidentlariga moliyaviy, marketing, yuridik va boshqa konsalting xizmatlari ko'rsatiladi. Yana bir muhim jihat shundaki, rezidentlar uchun moliyaviy imtiyozlar ham belgilangan.

Bunday muvaffaqiyatli tajriba yurtimizning boshqa hududlarida ham texnoparklarni ochishga turtki bo'ldi. 2020–2024 yillarda mamlakatimizning 14 ta hududida, birinchi navbatda, Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida, shu jumladan, Toshkent shahridagi al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab huzurida IT-park tashkil qilinadi. IT-parkning hududiy filiallarini tashkil etish bo'yicha joylardagi mahalliy hokimliklar bilan qo'shma qarorlar imzolaniib, har bir loyiha bo'yicha bajariladigan vazifalar tarmoq jadvallari tasdiqlandi.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilanmoqda. Texnopark rezidentlari tomonidan joriy etilishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini kengaytirish, raqamli ta'lim markazlarini hududlarda keng tashkil etish, texnopark rezidentlarini jalb qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarida axborot texnologiyalarini tatbiq qilish shular jumlasiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mahalliy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar sonini ko'paytirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat idoralari qiyamati 1 milliard so'mgacha bo'lgan shartnomalarni IT-park rezidentlari o'rtasida tanlov asosida imzolash huquqi berilgani iste'dodli yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, ularni yangi-yangi g'oyalarga ruhlantiradi.

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ishlab chiqildi (<https://my.gov.uz>). Bugungi kunda Yagona portal orqali 176 tadan ortiq elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda.

Tadbirkorlarning, shu jumladan, chet el investorlari murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarini hal etish maqsadida Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko'rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish uchun, shu jumladan bir vaqtning o'zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o'tkazish va tezkor jo'natish uchun vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizimi "project.gov.uz" joriy etildi.

Bundan tashqari, Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni tashish xizmati uchun litsenziyag berish, Abituriyentlardan hujjatlarni onlayn qabul qilish, Ipoteka kreditiga davlat subsidiyasi va o'qish joyidan ma'lumotnoma olish xizmatlari ham yaratildi.

Hukumat organlari va aholi o'rtasida samarali qayta muloqot tizimi o'rnatilishi eng yorqin misollaridan biri sifatida ishga tushgan "Mening fikrim" Jamoaviy murojaatlar portalini ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunda mazkur veb-portalga 3,6 mingdan ortiq murojaatnoma kelib tushdi, 25,2 mingdan ortiq taklif va izohlar chop etildi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 26 ta yangi xizmatlar ishga tushirilib, umumiy xizmatlar soni 200 tadan oshadi.

Yil boshidan beri 1,4 mln. ta elektron xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 foizga oshgan.

Shu bilan birga, yil yakuniga qadar Yagona portaldagi joriy qilinadigan 50 ta ommabop davlat xizmatlari ro'yxati tasdiqlandi.

Ularga to'htalib o'tadigan bo'lsak, shifokor qabuliga onlayn yozilish, yangi tug'ilgan go'dakni poliklinikaga elektron ro'yxatga qo'yish, ko'chmas mulkni ijaraga berish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish, arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini olish, kadastr pasportini ro'yxatdan o'tkazish, nafaqa olish uchun murojaat yuborish, ipoteka kreditlari bo'yicha davlat subsidiyasini olish, fuqarolarni Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy ro'yxatga olish, ish stajini tasdiqlash haqida arxiv ma'lumotnomasi va boshqa xizmatlar joriy

qilinadi.

Elektron hukumatning idoralararo platformasida davlat organlarining 90 ga yaqin axborot tizimlari va resurslarining o'zaro elektron hamkorligini ta'minlash yo'lga qo'yilib, 160 mln.dan ortiq so'rovlarga onlayn shaklda ma'lumotlar berilgan.

Davlatimiz rahbari huzurida shu yil 8 iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi islohotlar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan taqdimotda eng zarur bo'lgan davlat xizmatlarini tezkor ravishda elektron shaklga o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, "Elektron hukumat" xizmatlariga talab kundan kunga ortmoqda. Lekin hozir 780 turdagi davlat xizmatidan bor-yo'g'i 185 tasidan "elektron portal" orqali foydalanish imkoni mavjud. Aksariyat tashkilotlarda ish jarayonini raqamlashtirish faqat hujjat almashinuvini elektronlashtirish bilan cheklanmoqda. Bu borada elektron hukumatni yanada rivojlantirish, fuqarolar uchun zamonaviy qulay davlat xizmatlarni ko'rsatish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonni jadallashtirish maqsadida eng muhim yo'nalish va dolzarb masalalarni qamrab olgan 104 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

Masalan, sog'liqni saqlash tizimida "Yagona elektron tibbiy karta" axborot tizimining joriy etilishi yurtimiz fuqarolari to'g'risida yagona tibbiy ma'lumotlar bazasini shakllantirishga, aholining salomatligi monitoringini o'tkazishda yordam beradi.

"Elektron retsept" axborot tizimi esa bemorlarning medikamentoz vositalar bilan samarali va xavfsiz davolanishini tashkil etish, shifokorlarning elektron reyestrini shakllantirishga yo'naltirilgan loyihadir. Bu esa, o'z navbatida, tibbiy vositalarni nazorat qilish va monitoring olib borish tizimini takomillashtirishga ko'mak beradi.

O'zbekistonning eng katta boyligi — aholisining yarmidan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlardir. Shuning uchun ham yoshlarimizning jamiyatlardagi nufuzini oshirish davlat siyosati jarajasiga ko'tarilib, ularning yangi-yangi mutaxassisliklar va kasblarni egallashiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ta'lim sohasida ham katta ijobiy o'zgarishlar ruy berdi. 2018/2019 o'quv yilidan boshlab universitet zamonaviy ta'limning kredit tizimiga o'tkazildi, va hozirgi kunda bu tizimda 9 609 nafar talaba ta'lim olmoqda. Universitet tuzilmasida O'zbek-Belarus qo'shma fakulteti ham tashkil etildi.

2019 yil oktyabr oyida universitetda Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkilotining (JICA) 1,6 million AQSh dollar miqdoridagi texnik granti hisobiga

zamonaviy o'quv media markazi ochildi. Media markazda videokontentni tasvirga olish va ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Mazkur davr mobaynida xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo'lida Toshkent shahridagi Inha Universiteti ham samarali ish olib bordi. 2019 yil mart oyida universitetda O'zbekistonda biznes tahlilchilarni tayyorlash birinchi "ASPEX BI SCHOOL" maktabi ochildi.

Yoshlar o'rtasida IT-asoslarini keng o'qitish, ularning ushbu yo'nalishda ta'lim olishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Vazirlik tomonidan "Besh tashabbus" dasturi doirasida aholi va yoshlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishlarini tashkil qilish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etilib, yangi ish o'rinlari yaratildi. Bundan tashqari, Toshkent shahridagi Amiti Universiteti tashkil etildi. Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, axborot texnologiyalari sohasidagi yuksak maqsadlarga zamonaviy dasturchilar tayyorlash jarayonini jadallashtirish orqali erishish mumkin. Shuning uchun mavjud bo'shliqni to'ldirish maqsadida "Bir million dasturchi" loyihasi ishga tushirilgan.

Bugungi kunda "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida mashg'ulotlar uzbekcoders.uz o'quv portali orqali olib borilmoqda. Unda talab eng yuqori to'rtta mutaxassislik bo'yicha bepul videokurslar, jumladan, ma'lumotlarni tahlil qilish, android ilovalar, veb-ilovalar va dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish bo'yicha darslar o'zbek tilida subtitrlar bilan taqdim etilgan.

Keng jamoatchilikni raqamli bilimlarni o'zlashtirish va axborot texnologiyalari sohasidagi yangi mutaxassisliklarni o'rganishga jalb qilish maqsadida vazirligimiz tomonidan "Bir million dasturchi" loyihasida yoshlar ishtirokini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, uzbekcoders.uz portali orqali 2020/2021 o'quv yilida 2,1 mingdan ortiq maktabning 47 mingdan ziyod o'quvchisini, 44 ta oliy ta'lim muassasasining 54 mingdan ortiq talabasini o'qitish rejalashtirilgan.

Shu maqsadda yurtimiz bo'ylab aholi va yoshlar uchun raqamli texnologiya o'quv markazlari tashkil qilingan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan barcha hududlarda raqamli texnologiyalar bo'yicha kamida 100 ta o'quv markazini ochish rejalashtirilmoqda. Bu dargohlarda dasturlash asoslari, elektron savdo va grafikli dizayn kabi yo'nalishlar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari yo'lga qo'yiladi.

Muhim yangiliklardan yana biri, endi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi IT-parkning tumanlardagi

filiallari tomonidan har bir tuman va shaharda axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etiladi. Mamlakatimizdagi 200 dan ortiq shahar va tumanda bittadan maktab tanlab olinib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga ixtisoslashtiriladi.

Ushbu maktablar tuman va shaharlardagi boshqa maktablar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida tayanch baza vazifasini o'taydi. Informatika o'qituvchilarining malakasini oshirish, hamkorlikda yangi loyihalar ustida ish borishni yo'lga qo'yadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu kabi yirik loyihalarga start berilgani ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida raqamli texnologiyalarning hayotimizdagi o'rnini va rolini, ularning yurtimiz bo'ylab qamrovini jadal sur'atda oshiradi.

Tizim muntazam rivojlanyapti, keng ko'lamli va kompleks loyihalar amaliyotga joriy etilmoqda. Shu bilan birga, hali oldimizda bajaralishi zarur bo'lgan muhim vazifalar turibdi.

Zero, O'zbekistonning taraqqiyoti raqamli texnologiyalarning barcha soha va tarmoqlarga joriy etilishi va qo'llanishiga uzviy bog'liqdir.

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shuningdek, joriy yilning ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingani bejiz emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.28.12.2020

2.Артамонова, Н. А. Методы оценки предпринимательских рисков / Н. А. Артамонова. —Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 22 (156)—С.237-240.URL: <https://moluch.ru/archive/156/43943/> (дата обращения: 01.04.2024

3. Рақамли иқтисодиёт тушунчасининг моҳияти бўйича илмий ёндашувлар таҳлили. Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес» Файзуллаев Жонибек Негматуллаевич, 2022у

4.Journal Of Marketing, Business And Management (Jmbm) www.jmbm.uz Volume 1, Issue 4 (June) Issn: 2181-3000 Page 34 Biznes Jarayonlarini Modellashtirishning Roli Va Ahamiyati Ismatov Utkir Rustamovich

5. Астахов А.М. Оценка риска: Учеб. пособие. - М.: ДМК Пресс, 2013;

6. Assessment of the risk of bankruptcy of the enterprise Jan, 20 2023
7. Iqtisodiyot Transdisiplinarlik bilish www.ugb.ro/etcjild. XIV,1/2011-son 2023y 248-259.
8. "Pravda Vostoka" gazetasi Raqamli iqtisodiyot: "Taraqqiyot sari qisqa yo'l-
Raqamlashtirish" 17 sentyabr 2020 20199
9. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.
10. Niyozova, I. (2023). The Reforms Implemented In The Higher Education System Of The Republic Of Uzbekistan And Their Achievement Of Financial Independence. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 38(38).
11. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.
12. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.
13. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).
14. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).
15. Navruz-Zoda, L. B., & Navruz-Zoda, Z. B. (2020). Improvement Of Social Prestige Of Entrepreneurial Companies In Bukhara Region. Academy, (3), 37-39.
7. Usmanova, A. B. (2022). Sport Tourism As A Sport And Form Of Activity. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 212-214.
16. Усманова, А. (2022). The Current State And Analysis Of The Tourist Potential Of The Bukhara Region. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 15(15).
17. Navruz-Zoda, Z. (2023). Development Of Self-Employment Of The Population As A Factor Of Ensuring Economic Stability. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 33(33).
18. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. European



Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 207-211. 22. Dustova, A. (2022). Stimulating The Economic Growth Of Territories Through The Development Of Regional Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 12(12).

19.Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(12), 47-50.

20.Хаирова, Д. Р., & Сайфуллаева, М. И. (2021). Тенденции развития цементной индустрии в Узбекистане. Бюллетень науки и практики, 7(6), 358-362.

21.Сайфуллаева, М. (2023). РАЗВИТИЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ КАК ФАКТОР СТАБИЛЬНОГО РОСТА. Nashrlar, 368-371.

22.Qayimova, Z. (2023). Theoretical Aspects of the Development of the Socio-Economic Infrastructure of the Country. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).